



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراس professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





O‘ZBEKISTON TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Ashurova Nargiza Chori qizi

*Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
Termiz davlat universiteti*

E-mail: ashurovanargiza555@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida gastronomik turizmning turizm industriyasidagi o‘rni, uning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri hamda milliy madaniy merosni targ‘ib qilishdagi ahamiyati o‘rganildi. Shuningdek, mamlakat hududlarining gastronomik salohiyati, milliy taomlarning turistik mahsulot sifatidagi imkoniyatlari va xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirish omillari baholandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gastronomik turizmni rivojlantirish hududiy gastronomik brendlarni shakllantirish, turistik marshrutlarni kengaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda raqamli marketing texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi. Maqolada gastronomik turizmni klaster yondashuvi asosida rivojlantirish orqali turizm xizmatlari bozorining barqaror o‘shirishini ta’minlash bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: gastronomik turizm, turizm xizmatlari bozori, milliy oshxona, turistik salohiyat, hududiy rivojlanish, gastronomik brend, turizm infratuzilmasi, raqamli marketing, turistik marshrut, xizmat sifati.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКОГО ТУРИЗМА НА РЫНКЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ УЗБЕКИСТАНА

Ашурова Наргиза Чори кизи

*магистрант
2-го курса направления
туризм и гостеприимство
Термезский государственный университет*

E-mail: ashurovanargiza555@gmail.com

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются основные направления развития гастрономического туризма на рынке туристических услуг Узбекистана. В ходе исследования изучены роль гастрономического туризма в современной индустрии туризма, его влияние на региональное экономическое развитие и значение в продвижении национального культурного наследия. Проведен анализ гастрономического потенциала регионов страны, возможностей национальной кухни как туристического продукта и факторов повышения конкурентоспособности туристических услуг. Результаты исследования показывают, что эффективное развитие гастрономического туризма требует формирования региональных гастрономических брендов, расширения туристических маршрутов, повышения качества обслуживания и активного использования цифровых маркетинговых технологий. В статье предложены научные выводы и практические рекомендации по обеспечению устойчивого развития рынка туристических услуг на основе кластерного подхода.

Ключевые слова: гастрономический туризм, рынок туристических услуг, национальная кухня, туристический потенциал, региональное развитие, гастрономический





бренд, туристическая инфраструктура, цифровой маркетинг, туристический маршрут, качество обслуживания.

MAIN DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GASTRONOMIC TOURISM IN THE TOURISM SERVICES MARKET OF UZBEKISTAN

Ashurova Nargiza Chori kizi

2nd-year Master's student
in Tourism and Hospitality
Termez State University

E-mail: ashurovanargiza555@gmail.com

Abstract. This scientific article analyzes the main directions for the development of gastronomic tourism in the tourism services market of Uzbekistan. The study examines the role of gastronomic tourism in the modern tourism industry, its impact on regional economic development, and its importance in promoting national cultural heritage. The gastronomic potential of different regions, opportunities of national cuisine as a tourism product, and factors influencing the competitiveness of tourism services were evaluated. The research findings indicate that effective development of gastronomic tourism requires the formation of regional gastronomic brands, expansion of tourism routes, improvement of service quality, and active use of digital marketing technologies. The article proposes scientific conclusions and practical recommendations aimed at ensuring sustainable growth of the tourism services market through a cluster-based development approach.

Keywords: gastronomic tourism, tourism services market, national cuisine, tourism potential, regional development, gastronomic brand, tourism infrastructure, digital marketing, tourism route, service quality.

Kirish

So‘nggi yillarda jahon turizm industriyasida gastronomik turizm eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Turistlarning sayohat motivatsiyasida mahalliy oshxona, milliy taomlar va kulinariya an‘analari bilan tanishish muhim omil bo‘lib bormoqda. Shu sababli ko‘plab davlatlar gastronomik turizmni milliy turizm strategiyasining muhim qismi sifatida rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. O‘zbekiston boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy Ipak yo‘li an‘analari hamda o‘ziga xos milliy taomlari bilan gastronomik turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi. Palov, lag‘mon, manty, somsa, kabob kabi taomlar nafaqat milliy oshxonaning asosiy elementlari, balki xalqning turmush tarzi va madaniy merosining ajralmas qismi sifatida ham e‘tirof etiladi. Shu jihatdan gastronomik turizm O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida yangi turistik mahsulotlarni shakllantirish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish hamda milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkonini beradi [3, 144]

Mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, yangi turistik infratuzilmaning shakllanishi hamda xizmatlar bozorining kengayishi gastronomik turizmni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratmoqda. Shu bilan birga, hududiy gastronomik brendlarni shakllantirish, turistik marshrutlarni diversifikatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va raqamli marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Gastronomik turizm masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan.





Xususan, Patterson va Turaev gastronomik turizmni turizm bozorida yangi rivojlanayotgan segment sifatida baholab, milliy oshxona sayyohlarni jalb qilishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydilar [3,141-149]. Ularning fikricha, mahalliy kulinariya an’analari turizmning madaniy komponentini boyitadi va sayohat tajribasini yanada mazmunli qiladi.

Z. Raximov boshchiligidagi tadqiqotlarda O‘zbekiston gastronomik turizmining jozibadorligi milliy oshxonaning rang-barangligi bilan izohlanadi. Mualliflar gastronomik brend yaratish, turistik festival va kulinariya tadbirlarini rivojlantirish turizmning raqobatbardoshligini oshirishini qayd etadilar [4, 45-49].

Xojamuratova O‘zbekiston gastronomik turizmini Ipak yo‘li madaniy merosi bilan bog‘liq holda o‘rganib, mamlakatning kulinariya an’analari turistik tajribani boyituvchi muhim resurs ekanligini ta’kidlaydi [5, 596-599]. Tadqiqotda gastronomik turizmning iqtisodiy, madaniy va barqaror rivojlanish omillari tahlil qilingan.

Shuningdek, Jalilov gastronomik turizmni turizm industriyasining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholab, milliy taomlar, mehmondo‘stlik an’analari va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi bu sohaning rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [1, 1-4].

Mazkur ilmiy manbalar gastronomik turizm turizm bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy va madaniy omil ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

Tahlil va sintez usuli – gastronomik turizm rivojlanishining nazariy asoslarini o‘rganish;

Taqqoslash usuli – o‘zbekiston hududlarining gastronomik turistik salohiyatini baholash;

Statistik tahlil usuli – turizm xizmatlari bozoridagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash;

Klaster yondashuvi – gastronomik turizmni hududiy rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotda turizm sohasi bo‘yicha ilmiy maqolalar, statistik ma’lumotlar, turizm tashkilotlari hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Metodologik asos sifatida turizm iqtisodiyoti, marketing va hududiy rivojlanish nazariyalari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston gastronomik turizmni rivojlantirish uchun nihoyatda katta salohiyatga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Asrlar davomida shakllangan milliy oshxona nafaqat oziq-ovqat ehtiyojini qondirish vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odatlar va tarixiy merosini aks ettiruvchi muhim omildir. Mamlakat hududlari bo‘yicha iqlim, tabiiy resurslar va etnik tarkibning xilma-xilligi turli xil kulinariya an’alarining shakllanishiga zamin yaratgan. Shu bois O‘zbekiston gastronomik turizm yo‘nalishida o‘ziga xos va raqobatbardosh mahsulotlarni taklif qila oladi.

Hududlar kesimida qaralganda, har bir viloyatning o‘ziga xos taomlari va tayyorlash usullari mavjud bo‘lib, ular sayyohlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi. Masalan, Samarqand plovi o‘zining yirik donli guruchi va alohida pishirish texnologiyasi bilan ajralib tursa, Buxoro oshxonasi ko‘proq ziravorlarga boy va murakkab retseptlari bilan mashhur. Xorazmda tayyorlanadigan shivit oshi o‘zining yashil rangli noodatyi ko‘rinishi va o‘ziga xos ta’mi bilan ajralib turadi, Farg‘ona vodiysi esa xilma-xil va yog‘li taomlari bilan tanilgan. Ushbu hududiy gastronomik mahsulotlar nafaqat milliy, balki xalqaro turizm bozorida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Gastronomik turizmni rivojlantirish orqali O‘zbekistonda nafaqat turizm xizmatlari hajmini oshirish, balki hududiy iqtisodiyotlarni faollashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va milliy brendni mustahkamlash imkoniyati mavjud. Shu nuqtai nazardan, milliy taomlarni targ‘ib qilish, gastronomik festivallar tashkil etish, oshpazlik mahorat darslarini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada O‘zbekiston gastronomik turizm yo‘nalishida Markaziy Osiyoda yetakchi destinatsiyalardan biriga aylanishi





mumkin.

Gastronomik turizmni rivojlantirish omillarini quyidagi jadval orqali ko'rsatish mumkin.

1-jadval

O'zbekiston hududlarining gastronomik turizm salohiyati*

<i>Hudud</i>	<i>Mashhur milliy taomlar</i>	<i>Turistik ahamiyati</i>	<i>Rivojlanish imkoniyatlari</i>
Samarqand	Samarqand palovi, Samarqand noni, manti, tandir kabob	Boy tarixiy meros va gastronomik an'analar uyg'unligi. Registon, Shohi Zinda kabi tarixiy obidalarni ziyorat qilish bilan birga milliy taomlarni tatib ko'rish imkoniyati mavjud.	Gastronomik festival va palov sayllarini o'tkazish, oshpazlik master-klasslari tashkil etish, milliy oshxona restoranlarini rivojlantirish.
Buxoro	Buxoro palovi, kabob, shurva, somsa	Madaniy va ziyorat turizmi bilan chambarchas bog'liq. Buxoro qadimiy savdo shahri bo'lgani sababli turli gastronomik an'analar shakllangan.	Gastronomik turizm marshrutlarini yaratish, milliy taom tayyorlash jarayonini turistlarga ko'rsatish, gastronomik festivallarni rivojlantirish.
Xorazm	Shivit oshi, tuxum barak, gumma, Xorazm palovi	Hududning etnografik turizmi va qadimiy kulinariya an'analari bilan mashhur. Turistlar milliy taomlarning o'ziga xos tayyorlanish uslubi bilan tanishadilar.	Milliy oshxona markazlari tashkil etish, Xorazm gastronomik brendini yaratish, oshpazlik sayohatlari (culinary tours)ni rivojlantirish.
Farg'ona vodiysi	Farg'ona palovi, lag'mon, norin, chuchvara	Hunarmandchilik, dehqonchilik va milliy an'analar bilan uyg'un gastronomik tajriba. Mahalliy bozorlarda tabiiy mahsulotlar ko'pligi turistlar uchun qiziqarli.	Hududiy gastronomik brend yaratish, mahalliy oshpazlik maktablarini rivojlantirish, gastronomik festivallar tashkil etish.
Toshkent	Toshkent palovi, dimlama, mastava, qozon kabob	Poytaxt sifatida urban turizm markazi. Zamonaviy restoranlar va milliy oshxona muassasalari turistlarga keng gastronomik tanlov taklif qiladi.	Gastronomik ko'chalar (food street) tashkil etish, food-marketlar rivojlantirish, xalqaro gastronomik festivallar o'tkazish.

* Muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, gastronomik turizm hududiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznesni rivojlantirish hamda turistik xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, gastronomik turizm milliy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, gastronomik turizm O'zbekiston turizm xizmatlari bozorining istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy oshxona, tarixiy an'analar va mehmondo'stlik madaniyati gastronomik turizmni rivojlantirish uchun muhim resurs bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Hududiy gastronomik brendlarni shakllantirish va ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish.





Gastronomik festival, kulinariya ko‘rgazmalari va master-klasslar tashkil etish.
Turistik marshrutlarga gastronomik obyektlarni integratsiya qilish.
Milliy oshxona asosida turistik klasterlarni shakllantirish.
Turizm marketingida raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish.
Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorining raqobatbardoshligini oshirish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish hamda milliy gastronomik merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Jalilov Sh.K. Organization of gastronomic tourism in Uzbekistan // European Journal of Economics, Finance and Business Development. – 2025. – Vol. 3, №7. – P. 1–4.
- Komilova N.K., Matchanova A.E., Safarova N.I. Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study // Studies of Applied Economics. – 2021. – Vol. 39, №6. – P. 1–9.
- Patterson I., Turaev H. Gastronomy tourism as an emerging niche market in Uzbekistan // Journal of Gastronomy Hospitality and Travel. – 2020. – Vol. 3, №1. – P. 141–149.
- Rakhimov Z.O., Doniyorova M.B., Umarova M.Y. Gastronomic tourism as a factor of attractiveness of the tourist destination of Uzbekistan // Journal of Marketing and Emerging Economics. – 2023. – Vol. 3, №4. – P. 45–49.
- Xojamuratova Sh. Development opportunities of gastronomic tourism in Uzbekistan: a culinary expedition through the Silk Road // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3, №1. – P. 596–599.

